

## **GLOBAL IQLIM O'ZGARISHINING O'ZBEKISTONGA TA'SIRI VA UNING YUMSHATISH YO'LLARI**

---

**Sultonov Shaxzod Shavkat o'g'li**


*Buxoro viloyati Buxoro shahar Buxoro innovatsion ta'lim  
va tibbiyot universiteti iqtisod fan o'qituvchisi*

Global isish hozirda vujudga kelgan muammo emas. Bu muammo XX asrning o'rtalaridan hozirgi kungacha vujudga kelgan global muammodir. Bunga asosiy sabab dunyo aholisi sonining oshishi, neft va neft mahsulotlaridan betartib foydalanish, ishlab chiqarish hajmining ortishidir. Buning natijasida O'zbekistonda 1880-yildan to hozirgi vaqtgacha 1,6 daraja (13.2dan 14.8 C gacha) oshgan<sup>1</sup>. Buning oqibatida issiqxona gazlari konsentratsiyasining bundan keyin ham ortishi, qurg'oqchilik natijasida suv va oziq-ovqat tanqisligi xavfini ko'payishiga, issiq mavsum davomiyligi va qizg'inligining oshishi tufayli aholi sonining ortishiga, shuningdek sellar, toshqinlar va boshqa xavfli hodisalarning takrorlanishiga olib keladi. Undan tashqari, bunday ilish ekotizimlar holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, va Orolbo'yi, Qoraqalpog'iston, Surxondaryo, Buxoro va Xorazm viloyatlari kabi mintaqalarda ekologik vaziyatning keskinlashuviga olib keladi. Tabiiyki iqlim o'zgarishlari keyingi yarim asr ichida bizning mintaqaga ham sezilarli ta'sir o'tkazdi. Bir paytlar mavjlanib yotgan Orol dengizi maydoni o'nlab baravarga qisqarib, uning o'zani qaqroq sahroga aylandi. Mazkur oqibatlarni oldini olish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktabrdagi PQ-4477-sonli qaroriga muvofiq, O'zgidromet tomonidan tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda tayorlangan "2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «Yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" tasdiqlandi va ushbu Strategiyani ilgari surish va joriy etish bo'yicha Idoralararo kengash tuzildi. Ushbu Strategiyaning Harakatlar rejasi (Yo'l xaritasi)ga muvofiq, har bir vazirlik va idoralarga iqlim o'zgarishini yumshatish yoki unga moslashish bo'yicha vazifalar yuklatilgan.

O'zbekiston iqlim o'zgarishi oqibatlari ta'siriga ko'proq moyil bo'lgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Ekspertlarning statistik ma'lumotlariga ko'ra O'zbekistonning iqlimi quyidagi jadvalda keltirib o'tilganidek, harorat yil sayin o'sib bormoqda. Buni quyidagi rasmda ham kurishingiz mumkin (1-rasm). Bu rasmda viloyatlar kesimida haroratni yillar kesimida o'zgarayotganini ko'rishimiz mumkin.

---

<sup>1</sup> <https://hydromet.uz/uz/node/609>



Rasm. 1. O'zbekistonning viloyat markazlari bo'yicha o'rtacha yillik havo haroratining ko'p yillik o'zgarishi

<sup>2</sup> <https://hydromet.uz/index.php/uz/node/28>

Global iqlim o'zgarishi O'zbekistonda qator salbiy oqibatlarga olib kelyapti<sup>3</sup>.

1. Harorat ko'tarilishi suvning bug'lanish koeffitsiyentini oshishi mazkur hududlarda suv resurslarini kamayishiga, tanqisligiga ta'sir etmoqda.
2. 1950-60 yillardagi yog'ingarchilik juda ko'p bo'lgan davrlarga nisbatan yuqorida ko'rsatilgan ekologik tanglik oqibatida umuman yog'ingarchilik bo'lmagan kunlar soni ko'paymoqda.
3. Yuqoridagi haroratlarning o'zgarishi O'zbekistonga xos bo'lmagan shamolning yillik o'rtacha tezligiga ta'sir etib 3,8-4,0 dan 3,1-3,5 m/s ga kamayishi kuzatilmoqda.
4. Tuproqning namligini kamayishi hisobiga takroriy qurg'oqchilik xavfi ortmoqda, har o'n yil ichida davriy ravishda qurg'oqchilik har uch yilda takrorlanishi kuzatildi.
5. Salbiy ekologik o'zgarishlar shu bilan birga Sirdaryo va Amudaryo suvlarining Orol dengiziga quyilishini surunkali kamayishi Orol dengizidagi suv qoplagan yuzasining qisqarishiga olib kelmoqda.
6. Bu jarayonlar daryo deltasining cho'lga aylanishi va qurigan dengiz tubida yangi cho'l maydonlarini paydo bo'lishiga olib kelmoqda
7. Cho'lga aylangan va dengiz tubidagi yangi hududlaridagi tuz va changni shamol yordamida qishloq xo'jaligida o'stiriladigan sug'oriladigan yerlarga uchib borishi bu yerlarni qaytadan sho'rlanishiga olib kelmoqda.
8. Atmosfera havosini katta maydonlarda changlanishi ortmoqda.

Iqlim o'zgarishlarining yomon oqibatlariga qarshi kurashish maqsadida O'zbekiston tomonidan xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlik faol yo'lga qo'yilgan. O'zbekiston yuqorida tilga olingan xalqaro shartnoma va bitimlarga qo'shilgan:

- 2016 yil 19 aprel kuni O'zbekiston Parij bitimiga qo'shildi
- O'zbekiston BMT IO'DKga 1993 yilda qo'shildi(BMTning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Doiraviy konvensiyasi).

2017 yil 19 aprelda O'zbekiston Parij bitimini imzoladi, 2018 yil 2 noyabrda ratifikatsiya qildi. O'zbekiston Respublikasining O'RQ-491-son "Parij bitimini ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi Qonuni 2018-yil 2-oktabrda qabul qilindi. Bitim O'zbekiston uchun 2018-yil 9-dekabrda kuchga kirdi.

"2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «Yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" ga asosan "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida" va "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarining qabul qilinishi O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etishni tezlashtirish (quyosh va shamol elektr stansiyalarni qurish) uchun huquqiy va me'yoriy asos yaratdi. Bu orqali qayta tiklanuvchi energiya turlaridan foydalanish keygayishiga kata ta'sir ko'rsatti.

<sup>3</sup> <https://t.me/ekologuz/371>

Biroq, bu muammo faqat davlat idoralari, vazirliklar, soha mutaxassislari zimmasidagi vazifa emas. Har bir odam global isish, iqlim o'zgarishlarining oldini olishga bor vujudi bilan hissa qo'shishi shart. Ishlab chiqarish korxonalarida asosan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, imkon qadar ekologik toza transport (velosiped, elektromobil) xizmatidan foydalanish, yirik shahalarimizda avtomobilsiz kunlarni joriy etish, ko'p miqdorda yoqilg'i sarflaydigan avtomashinalar uchun to'lovlarni oshirish orqali choralar ham ma'lum ma'noda iqlim o'zgarishlarini oldinini olishga yordam berishi mumkin. Hududlarda, ayniqsa shaharda va uning atrofida daraxtzorlarni yanada ko'paytirish, daraxtlarning asossiz kesilishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Tabiiy boyliklarimizni tejab ishlatish, suv, gaz, elektr energiyasining ortiqcha sarflamaslik, o'zimiz yashayotgan hudud, hovli yoki ko'chaning toza va ozodaligiga e'tibor qaratsak, nur ustiga nur bo'lur edi.

### **XULOSA**

Global iqlim o'zgarishi XXI asrning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib, O'zbekiston bu muammoning salbiy ta'siriga ko'proq moyil bo'lgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, 1880-yildan hozirgi vaqtgacha O'zbekiston hududida o'rtacha harorat 1,6 daraja ( $13.2^{\circ}\text{C}$  dan  $14.8^{\circ}\text{C}$  gacha) oshgan.

Iqlim o'zgarishining O'zbekistonga salbiy ta'siri quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda:

- Suv resurslarining kamayishi va bug'lanish koeffitsiyentining oshishi
- Yog'ingarchilik rejimining o'zgarishi va qurg'oqchilik xavfining ortishi
- Shamol tezligining pasayishi ( $3,8-4,0$  m/s dan  $3,1-3,5$  m/s gacha)
- Orol dengizi maydonining keskin qisqarishi va ekologik inqiroz
- Tuproqlarning sho'rlanishi va cho'llanish jarayonlarining kuchayishi
- Atmosfera havosining changlanish darajasining oshishi

O'zbekiston tomonidan iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish bo'yicha bir qator muhim qadamlar qo'yildi. Jumladan, 2016-yilda Parij bitimiga qo'shilish, 2019-yilda "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini qabul qilish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo'yicha qonunchilik bazasini takomillashtirish amalga oshirildi.

Biroq, iqlim o'zgarishi muammosini hal etish faqat davlat idoralari zimmasidagi vazifa emas. Har bir fuqaro o'z hissasini qo'shishi zarur: qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, ekologik toza transport turlarini qo'llash, tabiiy resurslarni tejab-tergab sarflash, ko'kalamzorlashtirish ishlarini kengaytirish va atrof-muhitni asrash orqali bu jarayonga faol ishtirok etishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, iqlim o'zgarishi bilan kurashish kompleks yondashuv va jamiyatning barcha qatlamlarining faol ishtiroki talab etadigan uzoq muddatli jarayondir. O'zbekiston xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlikda ushbu global muammoni hal etishga o'z hissasini qo'shishda davom etmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktabrdagi PQ-4477-sonli qarori "2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «Yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasi to'g'risida"
2. O'zbekiston Respublikasining O'RQ-491-son Qonuni "Parij bitimini ratifikatsiya qilish to'g'risida", 2018-yil 2-oktyabr
3. O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"
4. O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"
5. BMTning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Doiraviy konvensiyasi (UNFCCC), 1993
6. Parij bitimi (Paris Agreement), 2016
7. O'zgidromet ma'lumotlari va statistik hisobotlar
8. O'zbekiston viloyat markazlari bo'yicha o'rtacha yillik havo haroratining ko'p yillik o'zgarishi statistik ma'lumotlari